O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI QADIMGI TURKIY FE’LLAR SEMANTIKASI

THE SEMANTICS OF OLD TURKIC VERBS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/MBGX9254

Abdushukurov Baxtiyor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc),
abdushukurov@navoiy-uni.uz
ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan qadimgi turkiy fe’llarning semantik tarkibi va tarixiy taraqqiyoti diaxron-qiyosiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida ur-, teg-, kötür-/kötär-, in-, saqïn-/sağïn-, buz-, al-, tut-, qozon-/qazğan- va uč- fe’llari tanlanib, ularning “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Qisasi Rabg‘uziy” hamda Alisher Navoiy asarlaridagi ma’nolari qiyoslanadi. Tahlilda tarixiy lug‘atlar, yozma yodgorliklar va “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ma’lumotlariga tayanilib, fe’l leksemalarining bosh va hosila ma’nolari, semantik kengayishi, ma’no ixtisoslashuvi hamda frazeologik birikmalar tarkibidagi vazifalari aniqlanadi. Xususan, ur- va al- fe’llarining ko‘p ma’noliligi, saqïn- fe’lining xotirlash va sog‘inish bilan bog‘liq semantik qirralari, uč- fe’lining harakat va ko‘chma ma’no ifodalash imkoniyatlari tarixiy dalillar asosida yoritiladi. Natijalar Navoiy poetik tilidagi fe’l semantikasining qadimgi turkiy til bilan uzviyligini va keyingi davrlarda yangi sememalar hisobiga boyiganini ko‘rsatadi. Tadqiqot tarixiy leksikologiya, semasiologiya va eski o‘zbek adabiy tili leksikasini o‘rganishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, qadimgi turkiy til, fe’l semantikasi, diaxron tahlil, polisemiya, semema, semantik taraqqiyot, tarixiy leksikologiya.*

Annotation. *This article examines the semantic structure and historical development of Old Turkic verbs attested in the works of Alisher Navoi through a diachronic and comparative approach. The analysis focuses on ur-, teg-, kötür-/kötär-, in-, saqïn-/sağïn-, buz-, al-, tut-, qozon-/qazğan-, and uč-, comparing their attested meanings in the Dīwān Lughāt al-Turk, Qutadghu Bilig, Qisas al-*

Rabghuzi, and Navoi’s writings. Drawing on historical dictionaries, written monuments, and the explanatory dictionary of Navoi’s language, the study distinguishes primary and derived meanings and traces semantic extension, shifts in usage, and the verbs’ roles in phraseological constructions. Particular attention is paid to the polysemy of ur- and al-, the semantic range of saqïn- relating to recollection and longing, and the literal and figurative uses of uč-. The comparison demonstrates both the continuity of the inherited Turkic verbal lexicon in Navoi’s literary language and the expansion of its semantic repertoire in subsequent historical stages. The findings contribute to historical lexicology, semasiology, and research on the vocabulary of Chagatai and earlier Turkic written traditions.

Keywords: *Alisher Navoi, Old Turkic, verb semantics, diachronic analysis, polysemy, sememe, semantic change, historical lexicology.*

Yozma manbalar tilini o‘rganish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashga yordam beradi, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqa, munosabatlarini belgilash va baholashda muhim vositalardan biri sanaladi. Leksika tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta’sirlarni o‘zida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarish va o‘sishni aniqlashga ko‘maklashadi [Бафоев,1983:3]. Binobarin, tilning tarixiy rivojlanish jarayoni va lug‘at boyligini o‘rganish alohida ahamiyatga molik.

Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari)da qo‘llanishda bo‘lgan o‘z qatlamga oid so‘zlarning tilda mavjudligi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. U oltoy oilasidagi tilda so‘zlashuvchi xalqlar hali ajralib ketishga ulgurmay, tillari bitta ekanligida yuzaga kela boshlagan. Bu davrda ko‘proq tasviriy-tanqidiy so‘zlar, tub fe’llar shakllangan. Ayni so‘zlar hozir ham ayrim fonetik farqlar bilan mo‘g‘ul va turkiy guruhga oid tillarda kuzatiladi. Keyinchalik obektiv va subektiv omillar ta’sirida umumturkiy leksika yuzaga keldi. Bu davrda turkiy tillar o‘zaro farqlanmagan va bir til edi [Mirtojiyev, 2000:48]. Qadimgi turkiy til (V–X asrlar)ning asosiy so‘z boyligini, shubhasiz, shu tilga xos bo‘lgan qatlam tashkil qiladi. Bu qatlam hozirgi qardosh turkiy tillarning barchasiga tegishli bo‘lgani bilan xarakterlanadi [Abdushukurov, 2019:40].

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, XI–XIV asrlarda yaratilgan qo‘lyoz- ma manbalardagi 700 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminning 640 dan ortig‘i Navoiy

asarlarida uchraydi [Dadaboyev, 1991:68–70]. Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi va eski turkiy til (XI–XIV asr birinchi yarmi) so‘zlari [Egamova, 2007], “Boburnoma”da esa qadimgi turkiy til davrida keng iste’molda bo‘lgan 1720 dan ortiq umaumturkiy leksemalar qo‘llangan.

Fe’l boshqa barcha so‘z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe’l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o‘rinni egallaydi, gap strukturasini belgilaydi, uning qanday ma’noli so‘zlardan tarkib topishini bildirish imkoniga ham ega bo‘ladi [Rasulov, 1994:107–115]. So‘z turkumlari ichida asosiy o‘rinni otlar va fe’llar tashkil qilishi e’tiborga olinsa, uning keng soha ekanligi anglashiladi. Buni quyida Alisher Navoiy asarlari tilida qo‘llanishda bo‘lgan ba’zi fe’llar tahlili jarayonida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, **ur-** fe’li mutafakkir asarlarida bir necha ma’nolarda ifodalanadi:

1)“urmoq”: *Bir ït kirdi, telbälik qïlur erdi, urub öltürdüm*;

2)“tepmoq”: *Ayağïn āftābağa urub yïqdï va dedikim, anï yïqdïm*;

3)“sanchmoq”: *Urmadï bir tiyğ anï yüz qatla tā injitmädi*;

4)“kesmoq”: *Ču men öldüm, ul dam anïŋ boynun ur*;

5)“otmoq”: *...gavharni imtihān üčün tašqa urmağay*;

6)“aylanmoq”: *Sadqaŋ boluban urmaq bu gunbazi axzar čarx*;

7)“tikmoq” “o‘rnatmoq”:

Birisi qošun sarï čekti raqam,

Birisi tümän sarï urdï alam;

8) “jo‘natmoq, yuzlanmoq”: *Biri urdï sarhad sarï navbatin*;

9)“shiddat bilan yog‘moq”: *Kim qayankim urub yüz ul selāb*;

10) “kirmoq, joylamoq”: *Körgäč-oq koŋligä urdï tarab*;

11) “tarqatmoq”: *Savuğ nafasïnï urmayïn subh*;

12) “o‘ldirmoq”: *...bir kiyik allïğa kelür, oq tartar anï urğalï*;

13) “botirmoq, tegizmoq”: *Kimki qïzïq suvğa iligin urar* [ANATIL, III:295–296].

Ushbu leksema Kul tigin yodnomasida quyidagi ma’nolarda kelgan: 1) “urmoq”: *Bayïqunïŋ aq adğïrïğ udluqïn sïyu urtï* – Bayirquning oq ayg‘irini kuragini urib sindirdi (KT,36); 2) “sanchmoq”: *Yaraqïnta yalmasïnta yüz artuq oqun urdï* – yarog‘iga, yopinchig‘iga yuzdan ortiq o‘q bilan urdi (KT,33); 3) “yozmoq”: *yaŋïlïp üläsikiŋin yämä bunta urtum* - adashib ayrilganingni ham bu yerda yozdim; 4) “o‘ymoq”: *ŋäŋ ŋäŋ sabïm ärsär bäŋü tašqa urtum* - qanday nima so‘zim bo‘lsa mangu toshga o‘ydim (KT,11); 5) “solmoq, chizmoq”: *ičin*

tašmï adïnčïğ bädiz urturtum - ichi toshiga maxsus naqsh soldirdim (KT,12). Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “urmoq”, “(yerga) qo‘ymoq”, “qo‘nmoq” (MK,I,177) ma’nolarini anglatgan. *Kümüš küngä ursa altun azaqïn kelür* – kumush quyoshga qo‘nsa, oltin o‘z oyog‘i bilan keladi. Bu maqolni ma’lum maqsadni amalga oshirish uchun pulni ayamay sarf qilishga undab aytiladi. Nosiruddin Rabg‘uziy bu so‘zdan “urmoq” (QR,15r14), “kiymoq” (QR,5v11), “solmoq” (QR,74r7), “chalmoq” (QR,200r1), “zarb qilmoq” (QR,87v15), “qo‘ymoq” (QR,224r20), “puflamoq” (QR,206v21), “o‘rnatmoq” (QR,32r9), “kesmoq” (QR,51v5), kirmoq” (QR,34r17) ma’nolarini yoritish jarayonida foydalangan.

Anglashiladiki, keyingi yillar, ya’ni eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib, o‘rganilayotgan kalimaning ma’nolari kengaygan. Shuningdek, tahlilga tortilgan so‘z Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida **yergä ur-** “buzmoq, yo‘qotmoq”, **qadam ur-** “qadam qo‘ymoq, otlanmoq, yo‘l yurmoq”, “Hayratul abror” asarida esa **još ur-** “jo‘sh urmoq, to‘lib toshmoq”, **ilik ur-** “qo‘l urmoq, ergashmoq”, **roy ur-** “o‘ylamoq”, **tiš ur-** “tishlamoq” singari frazemalarning shakllanishi uchun asos vazifasini o‘tagan [ANATIL, III:296].

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida “yetmoq” (MK,II,27), “tenglashmoq” (MK,I, 343), “erishmoq, qo‘lga kiritmoq” (MK,I,82), “tegmoq” (MK,I,522) sememalarida kelgan **teg-** fe’li Kul tigin yodgorligida **täg-** shaklida quyidagi ma’nolarni anglatgan: 1) “yetmoq”: *Tuputkä kičik etmädim* – Tuput (Tibet)ga bir oz yetmadim (KT,3); 2) “hujum qilmoq”: *üčünč Yegän Silig bägiŋ kädimlig toriğ at binip tägdi* – uchinchi bor Yegan Silig bekning kiyimli (zirhli) to‘riq ot (ini) minib, hujum qildi (KT,3). Bu so‘zning Turfon matnlarida “ega bo‘lmoq, nasib etmoq”, Moniy yozuvi manbalarida “tegmoq” sememalari ko‘zga tashlanadi (DTS,547). “Qisasi Rabg‘uziy” asarida “tegmoq” (QR,25r1), “erishmoq, ega bo‘lmoq, qo‘lga kiritmoq” (QR,19v4), “va’daga vafo qilmoq, ahdida turmoq” (QR,20v12), “daxl qilmoq, ta’sir etmoq” (QR,99r10) ma’nolari qayd etilgan. Alisher Navoiy asarlarida ***teg***ning “tegmoq”, “yetishmoq, ega bo‘lmoq, qo‘lga kiritmoq” ma’nolari voqelangan:

Bas qïlïŋ, atfāl, taš atmaqki, qan bolmiš ičim,
Tegdi goyā tāza qoyğan dağï pinhānimğa taš;

Falak zarfïn tola berdi qazā ul ay mayï išqïn,
Bu maydïn bizgä, vahkim, tegmädi bir qatradïn köpräk
[ANATIL, III:219].

“Ulug‘lamoq” ma’nosi Kul tigin matnida **kötür-** fe’li orqali ochib berilgan: *ögüm Elbilgä qatunuğ, täŋri töpüsintä tutup yögärü kötürmis ärinč* - onam Elbilga xotunni tangri [o‘z] martabasida tutib yuqori ko‘targan ekan (KT,11). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida “ko‘tarmoq”, “yo‘q qilmoq, tugatmoq” sememalari voqelangan. Ahmad Yugnakiy bu so‘zga “ko‘tarmoq”, “ulug‘lamoq” ma’nolarini yuklagan: *tavazu qïlïqlïqnï kötrür idi* (DTS,20). Eski o‘zbek adabiy tili, xususan, Alisher Navoiy asarlarida *kötär-* varianti “ko‘tarmoq”, “yerdan uzmoq”, “yuqori mansabga ko‘tarmoq”, “ichmoq, shimirmoq” sememalarida qo‘llangan: *Ul ilikin kötärib, bir qattïq silliy boynumğa urdï; Xāja Qutbiddin Ahmad... bir qullarïğa özlarin kötärtib quš salur ermiš; Arkānï davlatï ittifāq bilä oğlï tuqqunča anï pādšāh kötärdilär; Rindlardin may kötärmäkkä meni mumtāz etär* [ANATIL, II:157].

Kötär//kötür- leksemasi qadimgi turkiy tildagi “yuqoriga harakatlanmoq” ma’nosini anglatgan **köti-** fe’liga –**r** orttirma qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan, bunda ikkinchi bo‘g‘indagi **i** unlisi **ü** unlisiga, bu unli o‘z navbatida **ä** unlisiga almashgan, o‘zbek tilida **ö** unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: köti-+r- kötir->kötür->kötär-> kötär [Rahmatullayev, 2000:231].

Kul tigin bitigtoshida **in-** fe’li “inmoq, pastga tushmoq” ma’nosida voqelangan: *tağdaqï inmis tärilip yatmïs är bolmïs* – tog‘dagi pastga tushibdi, yig‘ilib yetmish er bo‘libdi (KT,12). Mahmud Koshg‘ariy o‘z lug‘atida kalimaning “tushmoq” (MK,I,181), “yog‘moq” sememalarini keltirib o‘tadi:

Ol qar qamuğ qïšïn inär

Ašlïq tarïğ anïn ünär – qor va yomg‘irlar hammasi qishda yog‘adi, ekin, don undan unadi (MK,II,237). “Qisasi Rabg‘uziy” asarida “tushmoq” (QR,20v11) ma’nosi ishlatilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy atamaning “tushmoq”, “egilmoq”, “(tong)otmoq” sememalaridan foydalangan: *Quyaš kulbamğa iŋändin mäŋä yüz qatla xušraqdur*; *...dānišmand erdi va bašï har kimgä inmäs erdi*; *sabāh inär erdi, aqšamğača el andin yerlär erdi* [ANATIL, II:37]. “O‘zbek tilining izohli luhati”da quyidagi ma’nolari aks etgan: 1) o‘tirmoq, qo‘nmoq; 2) *shv. yuq*oridan pastga tushmoq; 3) *ko‘chma k*irmoq, paydo bo‘lmoq [O‘TIL, II:239]. Hozirda Urganch, Xiva, Xonqa, Bog‘ot shevalarida *inmək* “cho‘kmoq, nuramoq” ma’nosini bildirsa, uning *yen-en-* varianti Surxondaryo shevalarida o‘zining dastlabki ma’nosida qo‘llanadi: *di:val indi* [O‘XShL,116].

Saqïn- fe’li Kul tigin bitigtoshida “qayg‘urmoq”, “o‘ylamoq”, “andisha qilmoq, mulohaza qilmoq” sememalarini aks ettirgan: *Inim Kül tigin kärgäk boltï özï saqïntïm* - inim Kul tigin vafot etdi, o‘zim g‘am chekdim (KT,10); *…oğlanïm*

bäglärim bodunum közi qašï yablaq boltačï täp saqïntïm - bolam, beklarim, xalqimning ko‘zi, qoshi yomon bo‘ladi, deb o‘yladim (KT,51); *Bunča isig kučüg bärtükgärü saqïnmatï* – shuncha mehnatini, kuchini sarf etganini andisha qilmay (KT,10). “Oltun yoruq” va Turfon matnlarida “o‘ylamoq”, uyg‘ur yozuviga oid budda manbalarida “xohlamoq”, XII–XIV asrlarga mansub uyg‘ur yuridik hujjatlarida “bezovta bo‘lmoq, xavotir olmoq” ma’nolarini bildirgan [DTS,486]. “Hibatul haqoyiq” asarida esa “o‘ylamoq”: *Ol išnïŋ oŋïnï soŋïnï saqïn;* “ehtiyot bo‘lmoq”: *Ešim teb ïnanïb sïr ayma saqïn* [DTS,486] kabi sememalarda qo‘llangan. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *sağïn*- shakli qo‘llanib, “tilamoq, istamoq”, “o‘ylamoq, gumon qilmoq” ma’nolarini kasb etgan: *ol mïŋä äzgü sağïndï* - u menga ezgulik tiladi, sog‘indi [MK, II:178]. Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *saqïn*/*sağïn* shakllari “eslamoq, xotirlamoq”, “o‘ylamoq” ma’nolarida voqelangan: *Qačan Yusuf qarïndašlarïn kördi ersä ol qïlğan yavuzlïqlarin saqïndï* (QR,93v9); *Musānï tilänči sağïndïlar yol bermädilär* (QR,111r2). *Sağïn*- Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asarida fe’li “sog‘inmoq, orzu qilmoq”, “Xazoyinul-maoniy”da “eslamoq, xotirlamoq”, “Hayratul-abror” dostonida “o‘ylamoq, gumon qilmoq” sememalarida uchraydi:

Har išdä yigitlärgä yalïnmaq hasrat,
Söz ičrä yigitlikni sağïnmaq hasrat;

Xuld ara bolsam anïŋ kuyin sağïnğum, vah, ne taŋ;

Vayki, yüz ta ara yalğuz bašïm,
Čarx sağïnmïiškï erür yüz bašïm [ANATIL, III:111].

Leksema hozirgi o‘zbek adabiy tilida “ko‘rgisi kelmoq”, “qo‘msamoq, xumor qilmoq”, “tilamoq, istamoq” ma’nolarida qo‘llanadi (O‘TIL,III,603). Fikrimizcha, ushbu so‘z Turfon matnlarida ishlatilgan “g‘amxo‘rlik qilmoq” ma’nosidagi ***saqï***- (DTS,486) fe’lidan hosil bo‘lgan.

Buz- fe’lining Kul tigin bitigtoshida “tor-mor qilmoq, mag‘lubiyatga uchratmoq” ma’nosi berilgan: *altï čub Soğdaq tapa sülädimiz, buzdïmïz* – olti chub (viloyat) sug‘dlari tomonga lashkar tortdik, tor-mor qildik (KT,31). Bilga hoqon matnida atamaning “buzmoq”, “g‘alaba qozonmoq, tor-mor qilmoq” sememalari qayd etilgan. “Qutadg‘u bilig” dostonida “vayron qilmoq”, “inson axloqi, fe’l-atvorini yomon tomonga o‘zgartirmoq”, “o‘zaro munosabatlarni yomonlashtirmoq” (DTS,130), “Devonu lug‘otit turk”da “buzmoq” ma’nolari

uchraydi [MK, II:178]. Alisher Navoiy asarlarida uning quyidagi ma’nolarini kuzatish mumkin:

1)“vayron qilmoq”: *Balxnï buzub, köp ğanāyïm bilä mulkigä qayttï* ;

2)“tor-mor qilmoq”: *... az kiši bilä üč yüz miŋ čerikni buzub, öz ilki bilä bašïn čaptï*;

3)“yo‘ldan ozdirmoq”: *Buzub har tarafdïn sipāh šāhni*;

4)“ahddan qaytmoq”: *Nečä küygüŋ sen dağï, uz va’da, buz paymānnï ham;*

5)“chetlashtirmoq”: *Mumkin ermästür anï buzmaq šāh,*

Tāki bolğay bu rāzdin āgāh [ANATIL, I:328].

Al- fe’li Kul tigin yodnomasida bir necha ma’nolarni aks ettirgan. Jumladan, “olmoq”: *tutuztï... äkisin özi altïzdï* - topshirdi... ikkisini o‘zi_oldirdi (KT,38); “qo‘lga kiritmoq, ega bo‘lmoq”: *tört buluŋdaqï bodunuğ qop almïs* - to‘rt tomondagi xalqni butunlay olgan (KT,2); *süsin sančdïmïz, älin altïmïz* - Lashkarini sanchdik, davlatini qo‘lga kiritdik (KT,46); *“*ishonmoq”: *Bilig bilmäs kiši, ol sabïğ alïp, yağru barïp, öküš kiši öltüg* - Ilm bilmas kishi, u so‘zni olib (ishonib) yaqin borib, ko‘p kishi o‘lding (KT,7); “itoat etmoq, quloq solmoq”: *ägidmiš qağanïŋïn sabïn almatïn, yär sayu bardïğ* - tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin har qaerga ketding (KT,9); “olib bermoq”: *Tabğač qağanqa älin, törüsin alï bärmis* - Tabg‘ach xoqoniga davlatini, qonun-qoidalarini olib bermish (KT,8). Bilga hoqon bitigida «xotin olmoq», «ishg‘ol qilmoq» sememalari ko‘zga tashlanadi (BX,10;24).

“Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” asarlarida a) “olmoq”, b) “ega bo‘lmoq”, v) “keragini olmoq”, g) “xotin olmoq”, d) “sotib olmoq”, ye) “tortib olmoq”, yo) “ishg‘ol qilmoq” (DTS,32) kabi ma’nolarda istifoda qilingan *al-* harakat fe’li XIV asr obidasi bo‘lmish “Qisasi Rabg‘uziy” yodnomasida quyidagi ma’nolarni bildirgan:

1. **Al-** leksemasi o‘zining bosh (denotativ), ya’ni “biror narsani ushlab yoki tutib qo‘lga kiritmoq” ma’nosida qo‘llanishda davom etgan**:** *Yana kündä ikki kümüš mändin alur…* (239r19).

2. “Xarid qilmoq, sotib olmoq”: *Mundağ sigir kimdä bar ersä keltürsün ağïr bahā berip alur-men* (128v1).

3. “Emmoq”: *Halima sağ emükin berdi ersä aldï* (185r3). Bu o‘rinda mazkur fe’l **em-** so‘zining sinonimi sifatida ko‘zga tashlanadi: *Yettinči bir emükin din süt emär, ammā yana bir emükindin suw ičär* (170v20).

4. “Ketkazmoq, yo‘qotmoq”: *Yer üzä suwlarïn aldï, kök yağmadï* (26v3).

5. “Asramoq, o‘g‘il qilib olmoq”: *Sen bu oğlannï meniŋ qapuğïmda qoyğïl, kišilär kelip asramaqğa qolğaylar. Ančada sen asramaqğa alğïl, tedi* (33v5).

6. “Ko‘ngil ovlamoq, taskin bermoq”: *Köŋüllärni yaxšïlïq birlä alğaysen* (177v8).

7. “Tutmoq”: *Oğlum teyü ilkimdän kim alğay, ulğartmïšda kimni atam tegäy, tep yïğladï* (183r5).

8. “Mehmon qilmoq, yedirib-ichirmoq”: *Yarlïğ: mäniŋ xalqïmnï mändin özgä kim qonuqlay alur* (138r21).

9. “Bajarmoq, uddalamoq”: *Bani İsrāilda birägü ummatïŋ bu yükni kötärä almağay* (213v3).

10. “Oyoq ostiga olmoq, bosib o‘tmoq”: *Suw keldi ašuqïŋa tegdi, oğlï bar erdi, anï ayaq astïŋa alïp tepäsiŋä ašdï* (24v12).

11. “Ruxsatsiz, noo‘rin qo‘lga kiritmoq”: *Mu’āviyanïŋ bašï yastuqğa tegdi ersä Yazidgä vasiyat qïldï: Husaynni ağïrlağïl, säŋä kelmištä öz ornïŋda olturğïl. Māl qolsa bergil. Bu qamuğ ularnïŋ haqï turur. Yolsuz alïp tururman tedi* (244r12).

Ayni paytda, leksik birlik **-i(b)** affiksli ravishdoshlar hamda ravishdosh formasidagi boshqa fe’llar bilan birikib, qo‘shma fe’llar hosil qilgan va bir qator sememalarni ifodalagan:

12. “Tortib olmoq”: *Seni oğlanlarïŋ birlä öltürür-män, qïzïŋnï tartïp alur-man* (63v4).

13. “Olib qolmoq”: *Biz Yusufğa mundağ ögrätü berdük, qarïndašïŋnï bu adā birlä alïp qalğïl* (97v10).

14. “Olib bormoq”: *Yigirmi yetti kiši öz mavlālarïndïn alu bardï* (244v5).

15. “Keltirmoq, olib kelmoq”: *Bu kelmišdä yarmaqlarï yoq erdi, tawar, juvāl, kiyiz, arğamčï alïp keldilär* (101v16).

16. “Yetkazmoq, xabardor qilmoq”: *Bu kün biziŋ hasratimizgä safar qïldïŋ ummatlarïŋğa alu barğïl* (214r20).

Shuningdek, tadqiq etilayotgan leksemaning xarakterli tomoni shundaki, u obida tilida yetakchi fe’l sifatida ot turkumidagi so‘zlar bilan birgalikda qo‘shma fe’llar yasagan va quyidagi ma’nolarni anglatgan:

17. “Qo‘lga kiritmoq, o‘lja qilmoq, ega bo‘lmoq”: *Anï körüp qamuğ musulmānlar takbir aydïlar. Ğanimatlar aldïlar* (222r16).

18. “Ishg‘ol qilmoq, fath etmoq”: *Qïrq yïldïn soŋ yana yābāndïn kelib Misrni aldïlar* (117r9).

19. “Ko‘tarmoq”: *Ya’qub yüzindä Yusufnï Rubil egniŋä aldï…* (69v2). Ushbu misolda leksema **kötär-** fe’li bilan ma’nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: *Yunus uluğ oğlïn kötärdi, xatunï kičik oğlïn kötärdi* (152v13).

20. “Uylanmoq, xotin olmoq”: *Hābil birlä tuğğan qïznï Qābilğa berür boldï ersä Qābil ünämädi, meniŋ birlä tuğğan qïznï alurmen, tedi* (15v7).

21. “Ushlamoq”: *Muhammadni(s.a.v.) kördilär tewäčilär tonïn kiymiš, buruduqnï beliŋä bağlamiš, ilkiŋä tayaq almiš* (188r10).

22. “Javob qaytarmoq, javob bermoq”: *Sarsabil İδi yarlïqï birlä kelipYunusğa salām qïldï, Yunus alik aldï* (154r20).

23. Asar muallifi «jang qilmoq, urushmoq» ma’nosini **uruš-** leksemasi bilan birgalikda **al-** fe’liga ham yuklagan**:** *Jālut ham ilgäri keldi, aydï: ne birlä urušursen?* (133v3); *Ellik-ellik birlä ilik ališïp, atlar yarišïp, arqiš tüšgän yergä keldilär* (76r2).

24. “Birovning nomini eslamoq, yo‘qlamoq”: *Rasulnï, andağ dušman erdikim, atïn ağzïnğa almas erdi* (196r19).

25. “Judo qilmoq, ayirmoq”: *Ya’ni mäŋä bir mu’jiza körgüzgil, yoq ersä, bašïŋnï alurman tedi* (208r14).

26. “Asir olmoq”: *Rasul alayhis-salām sahābalar birlä ularnïŋ xatunlarïn, oğul-qïzlarïn bulun alïb keldilär* (230r7).

27. “Qo‘ynig‘a olmoq”: *Telim vaqtlarda kördüm Mustafā alayhis-salām Hasan va Husaynni qoynïŋa alïp, qutluğ ağzïn ularnïŋ ağzïnğa qozar erdi* (243v18).

28. “Vafot etmoq”: *Dāvud ornïğa kelip sağ qolïn üzä yattï, Azrāil jānïn aldï* (137r3).

al- fe’li ko‘makchi fe’l shaklida ham keng qo‘llaniladi:

29. “Namuna, ibrat olmoq”: *Qamuğ xalāyiq Mavlā qudratïn bilsünlär, öz ājizlïqlarïn äŋläsunlär, ibrat alsunlar…* (138v19).

30. Qissada “sevib qolmoq, oshiq bo‘lmoq” **sew-** fe’li yordamida ochib berilgan: *Hadiča Muhammadnï sewdi nubuvvat körmäsdän burun* (189r1). Ayni paytda zikr etilgan ma’no **al-** leksemasi orqali ham ifodalangan: *Dāvud ul sačnï, ul körkni körüb köŋül aldurdï* (135r9).

31. “O‘ch olmoq”: *İlāhi banu qurayzadan öčümni almağunča jānïmnï almağïl* (229v16).

Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asarida tekshirilayotgan so‘zning “olmoq, bahrlanmoq”, “Hayratul-abror” dostonida “olmoq, qo‘lga kiritmoq, zabt etmoq” ma’nolari ko‘zga tashlanadi:

Alğanlar anïŋ rutbasïdïn vāyasïnï,
Bildik barïdïn biyik anïŋ pāyasïnï;

Qalmadï bir yerki yürüb almadï,
Yerki yürüb almadï bir qalmadï [ANATIL, II:513].

Aytish joizki, “biror narsani ushlab yoki tutib qo‘lga kiritmoq” o‘rganilayotgan fe’lning dastlabki ma’nosi bo‘lib, qolganlari hosila ma’nolar [Mirtojiyev, 2010:76–112] hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “olmoq” (MK, I:203), “ushlamoq, asir olmoq” (MK, III:148), “saqlamoq” (MK, III:18) ma’nolarni anglat- gan **tut-** fe’li Kul tigin bitigtoshida quyidagi sememalarni hosil qilishda ishtirok etgan: 1) “saqlamoq, tutib turmoq”: *Ötükän yïš olursar, bäŋü äl tuta olurtačï-sän* - O‘tukan yish (vodiysi)ni manzil qilinsa, mangu davlatni saqlab turajaksan (KT,8); 2) “tashkil etmoq, barpo qilmoq”: *Türük [bodunuğ tä) rip äl tut sïqïŋïn bunta urtum* - Turk xalqini to‘plab davlat tutishing[iz]ni bu yerda (toshga o‘yib) yozdim (KT,10); 3) “olmoq, qabul qilmoq”: *Türük bäglär türük atïn ïtï Tabğačğa bäglär Tabğač atïn tutïpan, Tabğač qağanqa körmis* - Turk beklari turkcha otini tashlab, tabg‘ach beklarining xitoycha otini qabul qilib, tabg‘ach xoqoniga qaram bo‘ldi (KT,8–9); 4) “qo‘llamoq”: *ögüm Elbilgä qatunuğ, täŋri töpüsintä tutup yögärü kötürmis ärinč* - onam Elbilga xotunni tangri [o‘z] martabasida tutib yuqori ko‘targan ekan (KT,11); 5) “boshqarmoq”: *äčümiz apamïz tutmïs yär sub idisiz bolmazun täyin* - Bobomiz, ajdodimiz boshqargan yer-suv yegasiz bo‘lmasin deb (KT,19); 6) “ushlamoq, asir olmoq”: *Anta yana kirip Türgäs qağan buyruqï, Az tutuquğ äligin tutdï* - O‘shanda yana [jangga| kirib Turgash xoqon [ning| vazirini, Az tutug‘ini [o‘z] qo‘li bilan ushladi (KT,38). Eski o‘zbek adabiy tilida ushbu so‘zning qator sememalari mavjud bo‘lganini “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”dan bilib olish mumkin:

a) “ushlamoq”: *Kim čïqïb la’liŋni öpgäy rištai zulfïn tutub*;
b) “asir olmoq”: *Kim anï tutqanda jānï rištasin dām aylamïš*;
v) “uzatmoq”: *Ne boldï tutsa maŋa bāda bir parizāda*;
g) “saqlamoq”: *Ey Navāiy, jism ara jān rištasin tutqïl aziz*;
d) “qoplamoq”: *Yer yüzin tutqan bahār ayyāmï ermäs lālazār*;
ye) “hisoblamoq”: *Tut firāq ičrä visāliniŋ xayālïn muğtanam*;
yo) “chidamoq”: *Anïŋ otïda kimsä tutmay maqar*;
j) “amal qilmoq”: *Biri ulkï tuttuŋ tariyqï niyāz*;
z) “kutmoq”: *Davr elidä gar vafā yoq, sen vafā qïlğïl, valek,*

Kimni xušhāl etsäŋ, andïn tut özüŋgä yüz malāl [ANATIL, III:260–261]. Bundan tashqari, mazkur leksema mutafakkir ijodida **vujud tut-** (paydo bo‘lmoq), **yiroq tut-** (olib qochmoq), **kanora tut-** (chekinmoq), **pos tut-** (xabardor bo‘lmoq), **surat tut-** (ro‘y bermoq) kabi frazemalarning hosil bo‘lishida faol ishtirok etgan [ANATIL, III:261].

Hozirgi adabiy tilda “qo‘lga kiritmoq, erishmoq; sazovor bo‘lmoq” ma’nolarini anglatgan *qozon-* fe’li Kul tigin yodnomasida **qazğan** shaklida qo‘llanib, quyidagi sememalarni kasb etgan “qo‘lga kiritmoq, erishmoq”: *Kül tigin biläп, äki šad birlä ölü yitü qazğantïm* – Inim Kul tigin bilan, ikki shad bilan o‘la-yita (halok bo‘la) [muvaffaqiyat] qozondim (KT,27); “egallamoq”: *Kimkä älig qazğanur-man?, - tär ärmis* – Kimga davlatni egallab beryapman?” - der ekan (KT,9). XI asrning dastlabki yodgorliklarida “qozonmoq, erishmoq”, “tirishmoq, harakat qilmoq” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan:

er tavar qazğandï – odam mol qozondi;

Baqmas bodun sawuk soz

Iudqï yüzi saranqa

Qazğan ulïč tüzünlük

Qalsun čavïŋ yarïnqa – O‘g‘liga nasihat qilib aytadi: insonlar baxil, yuzsiz, shilqim odamlarni sevmaydilar. Ey o‘g‘lim, yoqimli, xulqli bo‘lishga tirish, noming (shuhrating) ertaga (o‘zingdan keyin) qolsin [MK, II:290–291]. Bu kalimaning keyingi davrlarda muomalada bo‘lganini Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari va eski o‘zbek tili manbalaridan bilib olish mumkin. Ya’ni qissa tilida “qozonmoq, erishmoq”, hazrat Navoiy ijodida “qo‘lga kiritmoq, erishmoq”, “qozonmoq, topmoq” sememalariga duch kelamiz: *Qarun aydï: Täŋri bermiš ermäs, men öz ärdämim birlä qazğandïm* (QR,125v12);

...yā vāris sepär üčün yïğqay, yā hādisa qozğar üčün qazğanğay;

Berdi naysān yamğurïğa ul šaraf,

Kim guhar qazğandï bazmïdïn sadaf [ANATIL, IV:61]. Bugungi kunga kelib, tatar dialektlarida *qazg‘an-*, turk, gagavuz, qo‘miq, boshqird, tatar, no‘g‘oy, uyg‘ur tillarida *qazan-*, o‘zbek tilida *qozon* shakllari ko‘zga tashlanadi (ESS,V,186).

Uč- fe’lining “Irq bitig”, “O‘g‘uznoma”, “Xibatul-haqoyiq” asarlarida “uchmoq” (DTS,603), Kul tigin va Mo‘yunchur bitigida “o‘lmoq” sememasi aks etgan: *Kül tigin qony yïlqa yäti yägirmikä učdï* - Kul tigin qo‘y yilida, o‘n yettinchi [kun] da uchdi (o‘ldi) (KT,53). “Oltun yoruq” obidasida “uchmoq” ma’nosini ochib berish uchun *uč- qalï-* juft so‘zidan foydalanilgan (DTS,604).

Mahmud Koshg‘ariy tekshirilayotgan so‘zning oltita ma’nosi borligini misollar bilan dalillaydi: 1) “uchmoq”; 2) “baxti, davlati uchmoq, qo‘ldan ketmoq”; 3) “yiqilmoq”; 4) “o‘chmoq”; 5) “g‘azabi so‘nmoq”; 6) “o‘lmoq”: *er attïn quzï učdï* – odam otdan yiqilib tushdi; *erniŋ öpkäsi učdï* – odamning g‘azabi so‘ndi [MK, I:176–177]. Alisher Navoiy ushbu fe’lning “parvoz qilmoq”, “o‘zini yuqori tutmoq, kibrlanmoq”, “ketmoq, ko‘tarilmoq” ma’nolariga e’tibor qaratadi:

May batï dayrda učmaq tiläbän,
Mastlar anda avuč baskï qaqïb;

Kim qanātdin aŋa tarab bolğay,
Aŋa učmaq qačan ajab bolğay;

Ki bašdïn učqusïdur mili xuduŋ,
Bu taš birläki yetkurdum duruduŋ [ANATIL, III:301].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tekshirilayotgan so‘zning 13 ta sememasi ko‘rsatilib, shundan 3 tasi ko‘chma ma’no ekanligi urg‘ulangan: “parvoz qilmoq”, “maxsus mexanizmlar, apparatlar yor-damida havoda bir tomonga yo‘nalmoq”, “esmoq (shamol xaqida)”, “shamol, zarb yoki boshqa narsa ta’sirida havoda biror yo‘nalishda harakatlanmoq”, *ko‘chma* “*h*avoda kezmoq, parvoz qilmoq (mavhum narsalar haqida)”, *ko‘chma* “katta tezlikda harakatlanmoq”, “qor, muz ustida sirpanmoq”, *“*mavjud yeridan uzilib otilib ketmoq”, “sinib uzilmoq, sinmoq”, “asab yoki boshqa ta’sir sababli pirpiramoq, titramoq (lab, kiprik kabi a’zolar qaqida)”, *ko‘chma “b*erilmoq, qiziqmoq, asiri bo‘lmoq (asossiz, nomaqbul x egasi sanalgan xalqning ijtimoiy darajasini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdushukurov, B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 100 b.

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–IV жилдлар. – Тошкент: Фан, 1983–1985. – I: 656 б.; II: 644 б.; III: 624 б.; IV: 636 б.

3. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 158 б.

4. Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати. Алишер Навоий туғилганининг 550 йиллигига бағишланган илмий конференция материаллари. – Тошкент, 1991. – В. 68–70.

5. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.

6. Исламов З. Тюркские глаголы «Мукаддамат ал-адаб» Махмуда Замахшари. Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 107–115.

7. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк (Муталлибов С.М. тарж. ва нашрга тайёрл.; I–III жилдлар). – Тошкент: Фан, 1960–1963. I–529 б; II–488 б.

8. Миртожиев, М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. – 80 б.

9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010.
– 288 б.

10. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий (I–II жилдлар). – Тошкент: Ёзувчи, 1990–1991. I–240 б; II–272 б.

11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати: Туркий сўзлар.
– Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

12. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 142 б.

13. Рустамий А. Сайланма. 2-жилд: Туркий тил махзани. – Тошкент: Zilol buloq, 2022. – 392 б.

14. Садыков К. Глаголы в языке «Кутадгу билиг». Историко-лингвистический анализ старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 90–106.

15. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – Москва: Наука, 1974. – 767 с.

16. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». – Москва: Наука, 1978. – 349 с.

17. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на буквы «В», «Г», «Д». – Москва: Наука, 1980. – 395 с.

18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–V жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – I: 680 б.; II: 672 б.; III: 688 б.; IV: 608 б.; V: 608 б.

19. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – 408 б.

20. Холманова З. «Бобурнома» – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 336 б.

21. Nasiruddin bin Burhanud-din Rabghuzi. Kisasü’l-Enbiya (Aysu Ata, ed.; Vol. II). – Ankara, 1997. – 820 b.

SHARTLI QISQARTMALAR

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати . I-IV. – Тошкент: ФАН, 1983-1985.

DTS – Древнетиюркский словар. –Л.: Наука, 1969.

KTb – Рустамий А. Сайланма/2-жилд/ Туркий тил махзани/ - Тошкент: Zilol buloq, 2022.

MK – Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк/Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.

ESS – 1) Севортян Э.В. Этимологический словар тюркских языков: Обшетюркские и межтюркские основы на гласные. –М.: Наука, 1974.

2) Севортян Э.В. Этимологические словар тюркских языков: Обшетюркские и межтюркские основа на букву “Б”. –М.: Наука, 1978.

3) Севортян Э.В. Этимологические основы на буквы “В”, “Г”, “Д”. – М.: Наука, 1980.

O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.

QR – 1) Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. I-II Тошкент: Ёзувчи, 1990-1991.

2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. Kisasul-Enbiya. II. Dizin. Aysu Ata. – Ankara, 1997.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**